



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

XALQARO YUK TASHISH YO'NALISHLARIDA LOGISTIKA JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

Mamadaliyev Nodirbek Obidjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Transport logistika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Bugungi kunda xalqaro yuk tashish tizimi global ishlab chiqarish va iste'mol zanjirlarining uzviy bog'liqligini ta'minlovchi transport-logistika tizimi zimmasiga tub burilishlar va yuqori texnologik talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy jahon savdosining deyarli 80 % dan ortig'i bevosita xalqaro multimodal transport koridorlari orqali amalga oshiriladi. Biroq, bugungi murakkab geosiyosiy o'zgarishlar va iqtisodiy sanksiyalar sharoitida an'anaviy yuk tashish yo'nalishlari o'zining moslanuvchanligini yo'qotmoqda. Hozirgi kunda transchegaraviy logistikaga xos bo'lgan qog'ozbozlik, real vaqtdagi axborot oqimining uzilib qolishi va chegaralardagi uzoq muddatli tirbandliklar xalqaro savdo rivojiga juda katta zarar yetkazmoqda. Masalan, xalqaro ekspertlarning tahlillariga ko'ra, faqatgina transchegaraviy hujjatlarni qog'ozda rasmiylashtirish sababli xalqaro yuk mashinalari o'z vaqtining qariyb 30 - 40 foizini chegaralarda kutish bilan o'tkazadi. Shuning uchun Xalqaro yuk tashish yo'nalishlarida logistika jarayonlarini raqamlashtirish - bu shunchaki qog'ozli hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish degani emas, balki butun boshli ta'minot zanjirini intellektual boshqaruv modellariga o'tkazishni anglatadi. Raqamli platformalar barcha ishtirokchilar (yuk jo'natuvchi, tashuvchi, bojxona, sug'urta kompaniyalari va yakuniy iste'molchi) o'rtasida real vaqt rejimida (real-time) uzluksiz ma'lumot almashinuvini kafolatlaydi. Ayniqsa, dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmaydigan davlatlar uchun transport xarajatlarini raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirish makroiqtisodiy barqarorlikning eng muhim shartidir. LPI tahlillari shuni ko'rsatadiki, infratuzilmani raqamlashtirgan davlatlar tranzitdan 3 - 4 barobar ko'proq iqtisodiy foyda ko'radi, bu ayniqsa O'zbekiston kabi dengizga chiqish imkoniyati cheklangan mamlakatlar uchun milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida xalqaro yuk tashish tizimini transformatsiya qilish va transport yo'laklarini diversifikatsiyalash masalalari davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan "O'zbekistonning transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada mamlakatning geoiqtisodiy qaramligini kamaytirish uchun transport koridorlarini diversifikatsiya qilish, muqobil va xavfsiz yangi marshrutlarni shakllantirish hamda xalqaro yuk tashish hajmini kamida 2 barobarga oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Mazkur vazifalarni raqamli texnologiyalarsiz (e-CMR, e-Permit, eTIR) amalga oshirib bo'lmasligi, sohada yagona raqamli platformalar integratsiyasini ta'minlash zarurligi mazkur



qaror va ilgari qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF-6079) normativ-huquqiy bazasining asosi hisoblanadi.

Konsepsiya va Transport vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston an'anaviy muammoli yo'nalishlarni chetlab o'tish va diversifikatsiyani ta'minlash uchun 5 ta asosiy muqobil va yangi transport koridorlarini faol rivojlantirmoqda:

- "Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston" temir yo'li koridori (Sharqiy yo'nalish).
- "Trans-Afg'on" transport yo'lagi (Pokistonning Karachi portiga chiqish orqali Janubiy Osiyo yo'nalishi).
- Hazar dengizi orqali o'tuvchi koridor (O'zbekiston - Turkmaniston - Ozarbayjon - Gruziya - Turkiya - Yevropa).
- "O'zbekiston - Turkmaniston - Eron – Ummon" yo'lagi (Fors ko'rfaziga chiqish).
- Multimodal logistika markazlari tarmog'i: Respublikadagi umumiy quvvati 10,7 mln tonnaga teng bo'lgan 16 ta yirik logistika markazlarining raqamli integratsiyasi.

Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 mlrd AQSH dollariga yoki 20,7 % ga oshgan. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hajmida:

Eksport – 33,8 mlrd (+24 %)

Import – 47,4 mlrd (+18,5 %) AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Asosiy hamkor davlatlar 1-jadval.

Hamkor davlat	Umumiy savdo aylanmasi (% da)	Asosiy logistik yo'nalishi va xususiyati
Xitoy Xalq Respublikasi	21,2 %	Sharqiy yo'lak. Eng yirik import hamkori (uskunalar va texnologiyalar).
Rossiya Federatsiyasi	16,0 %	Shimoliy koridor. Eksport va import mahsulotlari hajmi bo'yicha barqaror.
Qozog'iston	6,1 %	Mintaqaviy yo'lak. Ham quruqlikdagi eng yaqin hamkor, ham asosiy tranzit hududi.
Turkiya	3,7 %	G'arbiy (Transkaspiy) yo'lak. To'qimachilik va sanoat mahsulotlari logistikasi.
Koreya Respublikasi	2,1 %	Multimodal tashuvlar (havo va dengiz portlari orqali aralash logistika).

Mazkur davlatlar va xalqaro koridorlar iqtisodiy rentabelligini oshirish va transport xarajatlarining mahsulot tannarxidagi yuqori ulushini (qariyb 20%) rivojlangan davlatlar darajasiga (8-10%) tushirish bevosita ushbu yo'nalishlardagi barcha ta'minot zanjiri ishtirokchilarini yagona raqamli makonda birlashtirishga bog'liqdir. Shu sababli, milliy iqtisodiyotimizning global savdodagi raqobatbardoshligini ta'minlash va transchegaraviy to'siqlarni virtual tarzda bartaraf etish uchun xalqaro yo'nalishlarda logistik jarayonlarni raqamlashtirish va raqamli platformalar va intellektual texnologiyalarni zudlik bilan qo'llash va o'zaro integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

An'anaviy tizimda haydovchilar va logistika kompaniyalari qog'oz shaklidagi yuk xatlarini (CMR), davlatlararo ruxsatnoma blanklarini ("Dozvol") va bojxona kafolati hujjatlarini rasmiylashtirish uchun juda ko'p vaqt yo'qotadi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish va transport koridorlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun quyidagi raqamli tizimlarni yagona platformaga birlashtirish talab etiladi. e-CMR (Elektron xalqaro yuk xati) - Yuk tashish shartnomasi va uning shartlarini tasdiqlovchi an'anaviy qog'oz yuk xatining toliq raqamli muqobilidir.

e-Permit (Elektron ruxsatnoma) - Ikki tomonlama va tranzit yuk tashishlar uchun davlatlar tomonidan o'zaro almashiladigan ruxsatnoma blanklarining raqamli shaklidir. O'zbekiston Prezidentining 2025-yildagi PQ-28-sonli qarorida ham asosiy hamkor davlatlar bilan aynan kvota blanklarini elektron almashish tizimini kengaytirish belgilangan.

e-TIR (Elektron xalqaro bojxona tranziti) - Xalqaro bojxona tranzit tartib-taomillarini raqamlashtiruvchi global tizim bo'lib, u yuk haqidagi ma'lumotlarni transport yo'lga chiqishidan oldin barcha chegaradosh davlatlarning bojxona idoralariiga onlayn yuboradi.

e-CMR va e-Permit tizimlarining hamkor davlatlar bilan integratsiya qilinishi xalqaro yuk avtomobillarining chegaralardan o'tish va bojxona rasmiylashtiruvi vaqtini 40-50% ga qisqartiradi. Qog'ozlarni tekshirish va qo'lda kiritish o'rniga tizim ma'lumotlarni avtomat skanerlaydi. Chegaralarda uzoq muddatli navbatlarning yo'qolishi transport vositalarining bo'sh turib qolish xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa xalqaro yo'nalishlarda bitta yukni yetkazib berish tannarxini o'rtacha 15-20% gacha arzonlashtirish imkonini beradi. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo'lgan Xitoy, Rossiya va Qozog'iston (jami savdoning qariyb 43 foizi) yo'nalishlarida ushbu elektron tizimlarning to'liq qo'llanilishi, mamlakatimizning tranzit jozibadorligini keskin oshiradi.

Xulosa qilib aytganda Xalqaro yuk tashish yo'nalishlarida logistika jarayonlarini raqamlashtirish mamlakat iqtisodiyoti va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishning eng muhim shartidir. O'zbekistonning geografik joylashuvini inobatga olgan holda, an'anaviy qog'ozbozlikka asoslangan tizimdan zudlik bilan voz kechish va zamonaviy texnologiyalarga o'tish talab etiladi. Xitoy, Rossiya va Qozog'iston kabi asosiy hamkor davlatlar bilan savdo aloqalarini mustahkamlash



hamda yangi ochilayotgan muqobil transport koridorlarini muvaffaqiyatli boshqarish bevosita raqamlashtirish darajasiga bog'liq. e-CMR va e-Permit kabi elektron tizimlarning to'liq joriy etilishi chegaralardagi vaqt yo'qotishlarini keskin qisqartiradi. Bu esa milliy mahsulotlarimiz tannarxidagi ortiqcha logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Mamlakatimiz transport-logistika tizimining strategik maqsadlariga erishish hamda O'zbekistonni mintaqaning yirik transport xamkoriga aylantirish uchun quyidagi choralar ko'rilishi lozim. Yagona milliy logistika platformasini yaratish, bojxona xizmati, transport vazirligi va xususiy logistika kompaniyalarining tarqoq dasturlarini yagona onlayn tizimga birlashtirish, xalqaro elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-janvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-sonli Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7342148>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
3. Crowley et al. Research on Digital Logistics Infrastructure and Economic Growth. ACM Digital Library Portal, 2023.
4. Development of Digital Logistics and Transport in the Process of Global Economic Integration. ACM Digital Library, 2025.
5. Xalqaro yuk tashish logistikasida raqamli texnologiyalar va GPS tizimining roli. Cyberleninka Ilmiy Jurnali, 2023.
6. Logistika raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishning dolzarbligi. Cyberleninka Elektron Kutubxonasi, 2024.
7. Transport va logistika sohasini optimallashtirishda raqamli texnologiyalar o'rni va istiqbollari. OpenScience Journal Platform, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2025-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hisoboti. Stat.uz Rasmiy Sayti, 2026.
9. <https://www.gazeta.uz/en/2025/01/15/transport-logistics/>.
10. <https://stat.uz/uz/>.

